



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	

AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA MILLIY ERTAKLARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYASI

Kayumova Nargiza Mirziyatovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining pedagogik ahamiyati yoritiladi. Milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi, uning mazmuni, tarbiyaviy imkoniyatlari hamda maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llash usullari tahlil qilinadi. Milliy ertaklar orqali bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, milliy ertaklar, pedagogik texnologiya, axloqiy tarbiya tamoyillari.

Abstract: This article examines the pedagogical aspects of forming moral values in senior preschool children. It analyzes the content and educational potential of using national fairy tales as a pedagogical technology in preschool education. The role of fairy tales in developing children's understanding of good and evil, positive behavior, national identity, and respect for moral values is substantiated.

Key words: preschool education, moral values, national fairy tales, pedagogical technology, moral education.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические аспекты формирования нравственных ценностей у детей старшего дошкольного возраста. Анализируются содержание и воспитательные возможности технологии использования национальных сказок в системе дошкольного образования. Обоснована роль национальных сказок в формировании у детей представлений о добре и зле, положительном поведении, национальной идентичности и уважении к духовным ценностям.

Ключевые слова: дошкольное образование, нравственные ценности, национальные сказки, педагогическая технология, принципы нравственного воспитания.

KIRISH

Jahon miqyosida yosh avlodni milliy iftixor ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatni rivojlantirish barkamol shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadni ko'zlagan holda innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni ma'naviy-ma'rifiy va madaniy jihatdan shakllantirishga asos bo'luvchi o'quv materiallari hamda ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunda taraqqiyotning global tendensiyasi hisoblanadi. Ayni vaqtda Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslarini uyg'unlashtirgan, tafakkur mahsuli bo'lgan xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur tuyg'ulariga ega insonni kamol toptirish qonuniyatlarini tadqiq etish insoniyat madaniyatining yuksalish omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, ma'naviy barkamol va axloqan yetuk avlodni tarbiyalashga bog'liq.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ongiga milliy qadriyatlar, ezgulik, halollik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirish dolzarb masalalardan biridir. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi, ayniqsa milliy ertaklar tarbiya vositasi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Milliy ertaklar xalqning ko'p asrlik hayotiy



tajribasi, orzu-intilishlari hamda axloqiy qarashlari mujassam bo'lgan ma'naviy merosdir. Ular orqali bolalar yaxshilik va yomonlikni farqlashni, to'g'ri xulosa chiqarishni hamda ijobiy qahramonlarga ergashishni o'rgatadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda tarixiy, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan samarali foydalanish bo'yicha faylasuf, adabiyotshunos, pedagog, siyosatshunos va boshqa sohalarning yetakchi vakillari turli davrlarda shug'ullanganlar hamda hozirda ham izlanishlar olib bormoqdalar. Yosh avlodga axloqiy tarbiya berishda qadriyatlardan foydalanish masalalari M. Inomova, O. Musurmonova, U. Mahkamov, S. Nishonova, N. Ortiqov, M. Qurbonovalarning pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyalarida yoritilgan bo'lsa, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar asosida kasbiy va ma'naviy madaniyatni shakllantirishga oid muammolarni hal etish G. N. Volkov, A. Sh. Gashimov, S. X. Temurova, Z. K. Ismoilova, A. Mamajanov, O. Musurmonova, S. N. Nurmatov, A. F. Xantibidze, R. K. Choriyev, A. Z. Izmaylov, B. H. O'rozov, Z. F. Mirtursunov, I. Raximov, G. H. Ibragimova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Faylasuf olimlardan I. Mo'minov, M. Xayrullayev, E. Yusupov, J. Tulenov, A. Jalolov, I. Imomnazarov va Q. Nazarovlar milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizning turli qirralari hamda takomil bosqichlari to'g'risida fikr yuritganlar. Pedagog olimlardan I. Valixo'jayeva va M. Komilova maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirishning turli jabhalarini tadqiq etganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish uzluksiz jarayon bo'lib, uning maktabgacha ta'lim bosqichi alohida o'rin egallaydi. Ertaklar xalq og'zaki ijodining namunasi bo'lib, xalq hayotini aks ettiradi. Ota-bobolarimiz yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda ertak va rivoyatlardan samarali foydalanishganlar. Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi – bu ertaklarni ta'sirchan usullar (sahnalashtirish, suhbat, rolli o'yinlar) orqali bolalarga yetkazish, ulardagi ezgulik, halollik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirish jarayonidir. Bu jarayon ertak mazmunini hamda qahramonlarni tahlil qilish, axloqiy xulosalar chiqarish bosqichlarini o'z ichiga oladi va bolalarda ma'naviy tarbiyani shakllantiradi. Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi ta'lim-tarbiya jarayonida milliy ertaklar vositasida bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizimdir. Ushbu texnologiya ayniqsa maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflarda samarali hisoblanadi. Milliy ertaklar xalqning ma'naviy xazinasi bo'lib, unda asrlar davomida shakllangan axloqiy me'yorlar mujassamdir. Ularni pedagogik texnologiya asosida tizimli qo'llash yosh avlodni barkamol va ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Axloqiy qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan e'tirof etilgan, inson xulq-atvorini tartibga soluvchi me'yor va tamoyillardir. Ertaklarda ushbu fazilatlar badiiy obrazlar orqali ifodalanadi: ijobiy qahramon halol, sabrli va jasur bo'lsa, salbiy qahramon ochko'z, yolg'onchi yoki zolim sifatida tasvirlanadi. Natijada bolalarda ijobiy fazilatlarga intilish hissi shakllanadi. Xalq ertaklari ifodalayotgan voqelik saviyasi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili va uslubi, voqelikni aks ettirish tarzi, sujet va kompozitsiya qurilishi, shuningdek, xayoliy hamda hayotiy uydirmaning tutgan o'рни va vazifasiga ko'ra tasnif qilinadi. Shu xususiyatlariga ko'ra folklorshunos V.Y. Propp xalq ertaklarini sehrli, novellistik, kumulyativ, hayvonlar haqidagi va hayotiy kabi besh turga ajratadi.

O'zbek ertakshunosi M. Afzalov ertaklarni fantastik va realistik turlarga bo'lib, hayvonlar haqidagi ertaklarni fantastik ertaklar tarkibiga kiritadi, biroq keyinchalik ularni alohida o'rganadi hamda o'zbek xalq ertaklarining uch ichki turga egaligini e'tirof etadi. Uning shogirdi K. Imomov esa ustoz tasnifiga tayangan holda o'zbek xalq ertaklarini sehrli va hayotiy kabi ikki turga ajratadi, hayvonlar haqidagi ertaklarni esa sehrli ertaklar silsilasida o'rganishni ma'qul deb biladi. Shuningdek, u hayotiy ertaklarni jangnoma tipidagi, ishqiy-sarguzasht tipidagi va hajviy kabi uch ichki turga ajratadi. S. Jumayeva va Z. Usmonovalarning tadqiqotlari o'zbek xalq ertaklari silsilasida hayvonlar haqidagi ertaklar alohida guruhni tashkil etishini, shuningdek, novellistik ertaklar ham anchagina ekanini tasdiqlaydi.

Milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi pedagogik jarayonni faollashtirishga xizmat qiladi. Ertakni ifodali o'qish, mazmunini muhokama qilish, sahnalashtirish va rolli o'yinlar orqali bolalar tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat axloqiy qadriyatlarning bolalar ongiga chuqur singishiga va kundalik xulq-atvorda namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. Milliy ertaklar asosida olib borilgan mashg'ulotlar bolalarda nafaqat axloqiy fazilatlarni, balki nutq madaniyati, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Ertaklarni qayta hikoya qilish, voqealarni davom ettirish, qahramonlarga baho berish orqali bolalar mustaqil fikrlash va axloqiy xulosa chiqarishga o'rganadilar. Shuningdek, milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida amalga oshirilganda yanada samarali bo'ladi. Ota-onalarning tarbiyaviy jarayonga jalb etilishi bolalarda shakllanayotgan axloqiy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy ertaklardan foydalanilgan mashg'ulotlarda bolalar axloqiy tushunchalarni an'anaviy usullarga nisbatan chuqurroq va ongliroq anglay boshlaydilar. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy fazilatlarini taqqoslash hamda voqealar rivojiga baho berish orqali bolalarda adolat, halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat, jasorat va vatanparvarlik kabi qadriyatlariga nisbatan barqaror ijobiy munosabat shakllanadi. Muhokama jarayonida bolalar o'z fikrini erkin bayon qilishga, o'z qarashlarini asoslab berishga hamda boshqalarning fikrini hurmat qilishga o'rganadilar, bu esa ularning axloqiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, rolli o'yinlar va sahnalashtirish faoliyati bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati hamda jamoada o'zini tutish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ertak syujetlarini sahnalashtirish jarayonida bolalar turli ijtimoiy rollarni bajaradilar, bu esa ularda empatiya, hamkorlik va mas'uliyat hissingin kuchayishiga olib keladi.

Mashg'ulotlar davomida bolalarning faol ishtiroki va mavzuga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi, ular topshiriqlarni mustaqil bajarishga hamda ijodiy yondashishga intildilar. Tajriba-sinov jarayonida shuningdek, milliy ertaklardan foydalanish bolalarning nutq boyligini kengaytirishi, obrazli fikrlashini rivojlantirishi va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamlashi aniqlandi. Ertaklarni qayta hikoya qilish, voqealar ketma-ketligini tiklash, qahramonlarga tavsif berish kabi faoliyat turlari bolalarda izchil fikrlash va o'z fikrini aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirdi. Axloqiy vaziyatlarni muhokama qilish esa bolalarda to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni farqlash, mustaqil axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirdi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, milliy ertaklar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bolalarning nafaqat ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga, balki ularning intellektual va ijtimoiy kompetensiyalarining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois milliy ertaklardan tizimli va maqsadli foydalanish maktabgacha ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi pedagogik jihatdan samarali va dolzarb hisoblanadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каюмова Н.М., Якубова З.З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. In: Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ-контекст (pp. 92–95).
2. Kayumova N.M. (2013). Maktabgacha pedagogika: o'quv qo'llanma.
3. Каюмова Н.М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. In: International Scientific And Practical Conference "The Time of Scientific Progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102–107).
4. Qodirova F.R., Toshpo'latova S.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. (2018). Preschool pedagogy: textbook. – Tashkent, 2018.
5. Kayumova N.M., Ro'ziyeva M.M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni. In: "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari (pp. 102–104).
6. Каюмова Н.М., Базарбаева З.О. (2023, October). Речь детей как психолого-педагогическая проблема. In: International Scientific Conference "Innovative Trends in Science, Practice and Education" (Vol. 2, No. 8, pp. 68–73).
7. Kayumova N.M. (2023). Educating children in the spirit of national values in preschool educational organizations and in the family. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(6), 33–38.
8. Kayumova N.M., Turg'unova M.R. (2023, January). "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish. In: International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 609–612).
9. Kayumova N.M., Turg'unova M.R. (2023, January). Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahorati. In: International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 605–608).
10. Kayumova N.M., Murodho'jaeva Z.M. (2023, January). Tarbiyachining faoliyatlarini tashkil etish jarayonidagi ijodkorligi. In: International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 601–604).
11. Хакимова Н.Ж., Каюмова Н.Н., Абидова Ф.Н., Улугмуратов Н.Х. (2021). Тени в аксонометрии и в ортогональных проекциях деталей. Интернаука, (15-2), 52–56.
12. Каюмова Н.М., Якубова З.З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. In: Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ-контекст (pp. 92–95).
13. Kayumova N.M. (2019). Peculiarities of teaching English in ESP classes. Modern Scientific Research, 128.
14. Каюмова Н.М., Пирмухамедова М.Э. (2019). Руководитель дошкольной образовательной организации и его функциональные обязанности. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 42.
15. Каюмова Н.М. (2024). Андрагогическая модель взаимодействия педагогов ДОО с семьями и местным сообществом. World of Scientific News in Science, 2(2), 27–36.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.